Yashil marketing: tushunchasi, mohiyati, kelib chiqishi, muammolari va istiqbollari .....	916
G'anieva Madina Bunyodali qizi, Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanova	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	923
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Lizing munosabatlarini rivojlantirishda raqamli marketing strategiyalari.....	928
Yusupova Feruza Yo'ldosheva	
Analysis of the Transformation and Development Trends of the Higher Education System in Uzbekistan.....	934
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	940
Oybek Elmuratov	
Sifatli ta'lim uchinchi renessansning poydevori sifatida: xorijiy tajriba va tavsiyalar .....	943
Zafar Jumayev Ikromiddinovich	
Совершенствование методологии "зеленого" учёта в финансовом менеджменте устойчивого развития компаний энергетической отрасли в Узбекистане .....	947
Глазова Марина Викторовна	
Yangi O'zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko'p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari .....	954
Berkinov B. B.	
O'rta ta'lim tizimida "o'qituvchi imiji"ni rivojlanish genezisi.....	962
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....	966
Акбарова Лайло Ушаевна	
Mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish.....	971
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
Inson resurslarini rivojlantirishda xorijiy kompaniyalarning tajribasini o'rganish metodologiyasi.....	978
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari .....	981
S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov	
G'allachilik klasterlarini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari .....	986
Ilmuratov Shavkat Maxsumovich	
Innovatsion texnologiyalarda umumishlab chiqarish xarajatlarini strategik boshqaruvin hisobini takomillashtirish masalalari .....	990
Nasriyeva Zebiniso A'зам кизи, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish-davr talabi .....	995
Ibroyim Maxkamov	
Tadbirkorlik subyektlari yer-suv resurslaridan foydalanishining hududiy xususiyatlari.....	999
Xamidjon Muxamadovich Shaxobov	



# SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA ZAMONAVIY TECHNOLOGIYALARINI JORIY QILISH-DAVR TALABI

Ibroyim Maxkamov

Iqtisod fanlari nomzodi,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda yer va suv resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishni yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Yer va suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning zaruriyati, ahamiyati va xususiyatlari, mazkur sohadagi respublikamizdag'i mavjud muammolar va ularni yechish imkoniyatlarini o'rGANIB chiqilgan, tadqiq etilgan. Ishlab chiqarish bilan ilm-fan bilan uzviyligi uzuksizligini ta'minlash orqali yer va suv resurslaridan samarali oqilona foydalanishni takomillashtirishga oid muallifning ilmiy fikrlari jamlangan.

**Kalit so'zlar:** yer va suv resurslari, suv resurslaridan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning suv ta'minoti, zamonaviy suvni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish.

**Abstract:** This article discusses the directions of effective and purposeful use of land and water resources in our country. The necessity, importance and features of the use of modern technologies in the use of land and water resources, the problems existing in the republic in this area and the possibilities of their solution are studied and investigated. The author's scientific views on improving the effective rational use of land and water resources by ensuring the continuity of production with science are summarized.

**Key words:** land and water resources, efficient use of water resources, water supply of irrigated lands, modern water-saving technologies, drip and rain irrigation.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются направления эффективного и целенаправленного использования земельных и водных ресурсов в нашей стране. Изучены, исследованы необходимость, значение и особенности применения современных технологий в использовании земельных и водных ресурсов, существующие в Республике проблемы в данной сфере и возможности их решения. Обобщены научные взгляды автора на совершенствование эффективного рационального использования земельных и водных ресурсов путем обеспечения преемственности производства с наукой.

**Ключевые слова:** земельные и водные ресурсы, эффективное использование водных ресурсов, водоснабжение орошаемых земель, современные водосберегающие технологии, капельное, дождевое орошение.

## KIRISH

Dunyoda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishlari va tez-tez takrorlanayotgan qurg'oqchilik tufayli yuzaga kelayotgan suv resurslarining taqchilligi tobora sezilib bormoqda. Nufuzli xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi 2,3 milliard kishini suv bilan ta'minlash dolzarb muammo bo'lib turibdi. Shuningdek, 1 milliard aholi toza ichimlik suviga ehtiyoj sezayotgan bo'lsa, 400 million odam esa suvsizlikdan azob chekmoxda. Mazkur global muammo O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra yaqin yillarda mamlakatimizda suvga bo'lgan talab sezilarli darajada ortib suv tanqisligi bo'yicha xavfli hududlar tarkibiga kirish ehtimoli bor.

Bunga sabab keyingi yillard davomida ushbu sohada to'laqonli bozor munosabatlariga asoslangan islo-hotlarning amalga oshirilmaganligi, ya'ni ushbu soha davlat tomonidan eng ko'p tartibga solinadigan soha bo'lganligi, davlat buyurtmasi, yerdan foydalanishga bo'lgan huquqlarning cheklanganligi va himoyalananmaganligi kabi muammolar ushbu tarmoqdagi samaradorlik, unumdorlik ko'rsatkichlarining pasayishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, Respublikamizda dehqonchilik faoliyati sug'orishga asoslangan bo'lganligi uchun suv ham yer ham eng zarur vosita hisoblanadi. Qishloq xo'jaligidan olinayotgan mahsulotlar, jumladan, paxta, sholi, sabzavot, makkajo'xori, bug'doy, arpa, yem-xashklarning ko'pchilik qismi sug'oriladigan yerda yetishtiriladi va yetishtiriladigan yalpi mahsulotlarning 95 foizga yaqini sug'oriladigan yerdan olinadi. Mamlakatimizda ham yer



va suv resurslariga oid imkoniyatlar cheklanganligi tufayli mavjud resurslardan samarali foydalanish maqsadida sug'orish tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

Suvdan qanchalik oqilona va samarali foydalanilsa, ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi shuncha ko'payadi hamda yuzaga keladigan iqtisodiy-ekologik muammolarning oldini olishga erishiladi<sup>[1]</sup>.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni ko'paytirish ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga-jina emas, balki jahoning ilg'or tajribalari, zamonaviy va intensiv agrotexnologiyalaridan samarali foydalanish, istiqbolli navlar yaratilib amaliyatga joriy etilayotganligidadir. Chunki aholini o'sib borishi, yangi sanoat korxonalarini qurilishi, xizmat ko'rsatish muassasalarini barpo etish yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar doirasida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar tufayli meva-sabzavot, bog'dorchilik, uzumchilik va chovchilik kabi tarmoqlar tobora rivojlanib bormoqda. 2023-yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi 2022-yil bilan solishtirilganda 4,1 % ga oshgan. Mamlakatimizda ilk bor 8 million 200 ming tonna g'alla, 3 million 800 ming tonna paxta, 15 million tonnadan ortiq sabzavot va poliz, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 2,6 tonna pilla yetishtirildi<sup>[1]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanishning iqtisodiy jihatlari bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, D.T.Zuzik, K.G.Gofman, Kerri Tyorner, Duglas Shoular tomonidan tadqiq etilgan<sup>[2]</sup>.

Suv resurslaridan maqsadli foydalanish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.Ch.Djalolov, Q.A.Choriyev, O'.P.Umurzakov, S.R.Umarov, A.S.Sultonov, Z.Ya.Xudoberganov, B.U.Xasanov, U.Sangirova, F.Kadirxodjayeva, A.A.Abdug'aniyev, S.A.Avezbayev, Z.A.Artukmetov, O'.P.Umurzoqov, Z.S.Shoxo'jayeva va S.Yo.Ismailov<sup>[3]</sup>larning ilmiy-tadqiqotlarida atroflicha ko'rib chiqilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, mamlakatimizda bog'dorchilikni, sabzavotchilikni, polizchilik hamda uzumchilik tarmoqlari ravnaqiga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Shu maqsadda yangi intensiv bog'-rog'lar barpo etilib, qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlari tobora kengaytirilib borilmoqda. Shu bilan birga qishloq xo'jaligining barqaror rivojlantirishda hal etishi lozim bo'lgan bir qator muammolar ham bor. Eng asosiy muammolardan biri suv ta'minotidir.

Mamlakatimizning salmoqli qismi qir va adirliklardan, tog' oldi maydonlaridan iborat bo'lib, bu hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish qiyin masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi suv taqchilligi sharoitida sug'orishning zamonaviy usullarini qo'llash orqaligina qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirib borish, iste'molchi va qayta ishlab chiqaruvchi korxonalarni mahsulot va xom-ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini talab darajasida qondirishga erishiladi. Shu bilan birga mahsulot turlarini eksport qilish imkoniyatlarini beradi. Bu o'z navbatida fermer va dehqon xo'jaliklari iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Bularning barchasi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni suv resurslari bilan ta'minlashga va undan samarali foydalanishga bog'liq. Respublikamizning bir qator hududlarida ekinlarni sug'orishning yangi texnologiyalari sinovdan o'tmoqda va qo'llashga tavsiya etib kelinmoqda.

Mahsulot yetishtirishda mazkur hududlarda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda sunvi tejash texnologiyalarini joriy etish katta ahamiyatga egadir. Chunki, mutaxassislarining fikricha tomchilatib sug'orishni bog' va tokzorlarda qo'llash orqali suv sarfini 35-40 foizga, mehnat sarfini kamaytirishga erishiladi, hosildorlikni 1,5-2 barobarga oshiradi.

1 О'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi [https://t.me/statistika\\_rasmiy/4308](https://t.me/statistika_rasmiy/4308).

2 Зузик Д.Т. Экономика водного хозяйства. – М., 1982. – С. 398; Kerry Turner, Economic valuation of water resources in agriculture. FAO. UNDP. ROME, 2004; Doughlas Shaw, Water Resource Economics and Policy [www.e-elgar.com](http://www.e-elgar.com).

3 Джалалов С.Ч. Орошаемое земледелие в условиях дефицита водных ресурсов. – Т.: 2000. – с. 235; Чаринев К.А. Проблемы аграрного ресурсного потенциала в условиях к рынку. – Т.: Фан, 1992; Умурзаков У.П. Повышения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики Узбекистана. – Т.: Фан. – 2005. – 212 с.; Умаров С.Р. Suv xo'jaligi tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarni takomillashtirish: avt. i.f.d. – Т.: 2017; Sultanov A.S. va boshq. Suv xo'jaligi iqtisodi. Darslik. – Т.: 2007; Xudayberganov Z.Ya. Suv resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2009; Hasanov B.U. O'zbekiston suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi: avt.i.f.n. – Т.: 2003. – 30 б.; Sangirova U.R. Suv iste'molchilar uyushmalari va fermer xo'jaliklari o'ttasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish. Т.: TIQXMMI, 2018. – 143 б.; Kadirxodjayeva, F.B Qishloq xo'jaligida oqova suvlardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. avt. i.f.n. – Т.: 2023. – 53 б.; Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. – Т.: TDIU, 2010. – 83 б.; Avezbayev S., Yer tuzish iqtisodi. Darslik. – Т.: Yangi asr avlod, 2002. – 249 б.; Artukmetov Z.A. Suv resurslari va suvdan foydalanish – Т.: TDAU, 2007. – 3 б.; Umurzaqov O'.P., Rizayev T. Suv iste'molchilar uyushmalarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2011. –№11. –25. Shoxo'jayeva Z.S. Qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish / Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –Qarshi, 2010. –25,131 б.; Исаилов С.Ё. Автоматизация системы капельного орошения садов и виноградников на склоновых и боргных землях Узбекистана, диссертация. – Ташкент. 2020: - 100 ст.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar belgilanmoqda va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, bularning barchasi suv resurslaridan foydalanish jaronida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kelgusi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim dasturilamal hujjat bo'lgan "O'zbekiston-2030" strategiyasi yuqorida fikrimizning dalilidir. Strategiyaning 3-yo'nalishi suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilishga qaratilgan. Unda 2030-yilga qadar mamlakatimizdagagi ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, bu borada klaster, fermer va dehqon xo'jaliklariga imtiyozlar berish belgilangan. Shu maqsadda suv xo'jaligi sohasini kompleks rivojlantirish, raqamli va suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini amaliyatga joriy etish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutilgan. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarini joriy qilishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham belgilab berilgan [2].

Ma'lumki, bugungi kunda suv tejovchi tizim joriy qilingan har bir gektar uchun 8 million so'm miqdorida subsidiya beriladi. Shu kungacha bu mablag'ning 50 foizi texnologiya o'rnatilgan yilda, qolgan qismi esa kelgusi yili uni ishlatalishiga qarab to'lanar edi. Endilikda bu borada ham qulaylik yaratilib, barcha subsidiya mablag'larini o'sha yilning o'zida to'lab berish choralar ko'rilmoxda. Shuningdek, imtiyozli kredit liniyasi tashkil qilinmoqda. Beriladigan kreditlar 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga 14 foizlik stavkada ajratiladi. Kreditni olishda fermerlardan mol-mulk garovi talab qilinmaydi.

Qishloq xo'jaligiga innovatsion texnologiyalarini joriy etish asosida resurslarni tejash orqali mahsulot tan-narxini 30-35 foizga kamaytirish, suvni tejaydigan texnologiya joriy qilingan maydonlarni 1 million 500 ming gektrga yetkazish, sifatli va serhosil navlarni ko'paytirish, ekologik toza mahsulotlar yetishtirishga ustivor vazifa sifatida e'tirof etilgan.

Keyingi yillarda 472 ming gektar yer tomchilatib va 48 ming gektari yomg'irlatib sug'orishga o'tkazildi. 97 ming gektarda boshqa suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi, 649 ming gektar yer lazerli tekislandi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida birgina 2023-yilda 2 milliard kub metr suv tejalgan, bu Buxoro viloyatining bir yillik suv sarfiga tengdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, davlatimiz tomonidan suvni tejovchi texnologiyalarini joriy qilishni rag'batlantirish choralar ham ko'rilmoxda. Jumladan, 2025-yildan boshlab dalada suv hisoblagich o'rnatgan va tejamkor texnologiyalardan foydalanadigan fermerlar uchun soliq koeffitsiyenti kamaytiriladi. Aksincha holatlarda esa oshiriladi. Shu bilan birga suv yetkazib berish uchun to'lovlar bekor qilinadi.

2023-yilning 29-noyabr kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida suvdan tejamkorlik bilan foydalanish bo'yicha barcha mas'ullarga zarur topshiriq va vazifalar belgilab berildi. Shuningdek, "suv tiganmas emas" degan g'oynani aholi ongiga chuqur singdirish, kelgusida suv taqchilligi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni va uning salbiy oqibatlarini hal etish bo'yicha bugundanoq yechim izlash lozimligi ta'kidlab o'tildi. Suv yo'qotishlarni kamaytirish uchun 75 ta yirik kanallarni betonlashga budjetdan 680 milliard so'm mablag' ajratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad eng ko'p suv yo'qotiladigan kanallarni vegetatsiya davri boshlangunga qadar betonlash ishlarini yakunlash, kanallar atrofida daraxtlar ekish ishlari amalga oshiriladi.

Jahon mamlakatlari tajribasiga ko'ra xususan, Isroi va Ispaniyada bir gektar maydonda paxta yetishtirish uchun 4-5 ming metr kub(m<sup>3</sup>) suv sarflansa, mamlakatimizda bu ko'rsatkich 11-12 ming metr kubni tashkil etadi. Bunda suvni to'g'on, sug'orish tizimi va tarmoqlari orqali dalaga yetib kelguncha bug'lanishini ham qo'shib hisoblangan. Bug'lanishni kamaytirish uchun Ispaniyada suv dalaga maxsus quvurlarda olib kelinsa, Isroilda rezervuarlardan shlanglar orqali tomchilatib sug'orish uchun limit asosida yetkaziladi. Limit bo'yicha bir gektar g'o'zani sug'orish uchun 4-5 ming m<sup>3</sup> suv ajaratiladi. Fermer bu me'yordan ortiq suv sarflasa haqini o'z hisobidan to'laydi.

Jahon amaliyoti tajribalari ko'rsatishicha, suv xo'jaligi o'ta murakkab tizim hisoblanib, undan foydalanish samaradorligini belgilovchi omillarni shartli ravishda ikkita-texnik-tashkiliy va iqtisodiy-huquqiy guruhlarga ajratish mumkin. Daryo, kanal va boshqa manbaalardan olingan suv ekinzorlarga borguncha tuproqqa shimalib, havoga bug'lanib, miqdorini kamayishi tabiiy hol. Bundan tashqari suv isrofarchiligin keltirib chiqaradigan turli boshqa sabablar ham bor. Bular tashkiliy isrofarchilik deb ham ataladi. Sug'orish tizimlaridagi ekspluatatsiya ishlari qanchalik nochor ahvolda bo'lsa, isrofarchilik shunchalik ko'p bo'ladi. O'z navbatida aytish lozimki, so'nggi yillarda tobora kuchayib borayotgan iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi, yerlarning meliorativ



holati buzilishi kabi muammolar sabab, O'zbekistonda ushu soha bir qator muammo va tahdidlar iskanjasida qoldi. Belgilangan vazifalarni bajarilishi uchun suv resurslaridan foydalanuvchilar amaldagi qonunchilikka rioya etishlari zarur. Shuningdek, suvning magistral kanallardan tortib to dalaga borgunga qadar qat'iy hisobini yuritishni, belgilangan me'yordan ortiq suv olmaslik, suvning behuda sarfini oldini olish uchun kanal va kollektor-zovur o'zanlarini muntazam tozalab turish kabi oddiy bo'lib ko'ringan tadbirlarni amalga oshirilishi nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash balki, ertangi kunimiz istiqboli va farovonligini ta'minlashga zamin bo'lib xizmat qiladi [3].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelgusida suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb o'yaymiz:

- Davlat tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasida suv resurslaridan foydalanish bo'yicha belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich bajarilishini ta'minlash;
- Suv resurslaridan tejab-tergab foydalanishni qat'iy nazoratga olish va ulardan xo'jasizlarcha foydalanigan shaxslarga tegishli choralar ko'rish;
- Sug'oriladigan yerlarda suv xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish;
- Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish bo'yicha yangi bozor iqtisodiyotiga xos institutsional shakllarni joriy qilish;
- Barcha sug'orish tarmoqlarini xatlovdan o'tkazish, egalari bo'yicha biriktirish hamda har birining yagona identifikatsion raqamini ishlab chiqish;
- Aholi o'rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyati shakllantirish. Ommaviy axborot vositalari orqali "Suvni isrof qilma", "Suv keldi, nur keldi", "Suv hayot manbai", "Oldindan oqqan suvning qadriga yet", "Suvning uvoli yomon", "Suv keltirgan elda aziz" degan g'oyalarni yoritib borish.

Yuqorida taklif etilgan fikrlarni inobatga olish va amalga oshirish mamlakatimizda eng noyob yer-suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishga xizmat qiladi. Shuningdek, yer-suv resurslaridan foydalanish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan iqtisodiy-ekologik muammolarning oldini olish ta'minlanadi hamda ko'plab miqdorda sifatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilib, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab-ehtiyojlarni to'laroq qondirish imkoniyatiga erishiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda ko'pchilik kishilarning ongida o'rnashib qolgan "Suttekin" degan tushunchani o'zgartirish vaqt keldi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda aholini barcha qatlamlari tashabbus ko'rsatishlari lozim. Zero, mamlakatimizni rivojlanishini va aholining farovonligi o'sishi ko'p jihatidan suv resurslaridan oqilona foydalanishimizga bog'liq. Buning uchun suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik vazifamizga aylanmog'i lozim.

### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risi"dagi Farmoni. 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son. <https://lex.uz/docs/6811936#6812119>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tiladi" videoselektor shaklida o'tkazilgan yig'ilishdagи nutqi. rasmiy veb sayti. [www.president.uz](http://www.president.uz). 29.11.2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2023-yil 1-aprel, PQ-107. <https://lex.uz/docs/6420836>.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.